

**XITYOYLIK SAYYOH SHYUAN ZANGNING MARKAZIY OSIYOGA
SAYOHATI VA SHAHARLAR JOYLASHUVI BO‘YICHA
QAYDLARINING O‘RGANILISHI**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-528-532>

Xubbaliyeva Maxpurat Xamzayevna
TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola xitoylik sayyoh Shyuan Zangning Tan sulolasi davrida Markaziy Osiyoga tashrifi va uning “Buyuk Tan sulolasi davrining G‘arbiy o‘lkalar haqidagi xotiralari” asari haqida ma‘lumot beradi. Sayyoh o‘z asarida Markaziy Osiyoning ko‘hna shaharlari, geografik joylashuvi, aholisi hamda sayohat yo‘nalishi bo‘yicha ko‘p qiziqarli va muhim ma‘lumotlarni taqdim etadi. Shu jihatdan, mazkur maqola bugungi kunga qadar xitoyshunoslik sohasidagi nashr qilingan ilmiy tadqiqot ishlariga qo‘shimcha ma‘lumot bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Shyuan Zang, “Da Tang Xi Yu Ji” asari, Ouyan Syu, “Sin Tan shu” asari, Markaziy Osiyo, Chjou Lyankuan;

Annotation: This article presents information about the visit of the Chinese traveler Xuan Zang to Central Asia during the Tang Dynasty and his work “Memoirs of the Western Lands of the Great Tang Dynasty.” In his work, the tourist provides a lot of interesting and important information about the ancient cities of Central Asia, their geographical location, population and travel destinations. In this regard, this article serves as complementary information to published scholarly research in the field of Chinese studies.

Keywords: Xuan Zang, Da Tang Xi Yu Ji, Ouyan Xu, Xin Tan Shu, Central Asia, Zhou Liangquan

Xitoy tilidagi manbalarning aksariyatida karvon yo‘llari bo‘ylab joylashish ketma-ketligi hech qanday tarzda tasvirlanmagan va shuning uchun ularning nisbiyligini aniqlash ko‘pincha qiyin va hatto imkonsizdir. Biroq, bu borada Shyuan Zangning “Buyuk Tan sulolasi davrining G‘arbiy o‘lkalar haqidagi xotiralari” (“Da Tang Xi Yu Ji”) asari qimmatlidir.

Xitoylik sayyoh Shyuan Zang 629-645 yillarda Hindistonga sayohat qilgan. U Sharqiy Turkiston va Jungariyaning shimoli-g‘arbiy yerlaridan, O‘rta Osiyodan (shimoli-sharqdan uning markazi orqali janubgacha Afg‘onistonning shimoliy chegaralarigacha) o‘tib, u yerdan Hindistonga borishi kerak bo‘lgan. Shyuan Zang to‘liq ma‘noda sayohatchi emas, balki ziyoratchi edi.¹ Lekin u buyuk geograf ham edi. Hindistonga ketayotib, u o‘zining eslatmalarida o‘nlab davlatlarni tasvirlab bergan. Shu bilan birga, ularning har biri u yoki bu karvon yo‘liga bog‘langan guruhlariga

¹ Л.А.Боровкова. Запад Центральной Азии во II в до н.э. – VII в.н.э. Москва, 1989. С.132

bo'lib tasvirlab berdi. U har bir berilgan guruhning holatini ma'lum yo'l bo'ylab birin-ketin joylashish ketma-ketligida tasvirlab berdi. Va u o'z-o'zidan fizik-geografik obyektlarga qiziqmasa ham, har bir yo'lda ularning eng muhimlarini eslatib o'tdi. Ouyan Syu “Sin Tan Shu”² uchun G'arbiy hudud haqidagi rivoyatni tuzayotganida, elchilardan olingan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, Shyuan Zangning eslatmalaridan aniq foydalangan. Shyuan Zang ta'riflarining ketma-ketligini va sulolaviy tarix ma'lumotlariga tayangan holda, VI asr oxiri va VII asr boshlarida O'rta Osiyoning g'arbiy qismidagi davlatlarning nisbiy holatini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sulola tarixidan farqli o'laroq, Shyuan Zang davlatlarning mahalliy nomlarini beradi. Uning ishini tuzuvchilar eslatmalarda bir qator hollarda ularni eski xitoy yoki Tan davridagi nomlari bilan aniqladilar.

Sujidan (Kuchi) g'arbda 600 li (316 km) “Eslatmalar” va “Sin Tan shu” da sobiq Gumo deb aniqlangan Balujia davlati ko'rsatilgan. “Xan shu” (Xan sulolasi tarixi) ga ko'ra, Guitsidan Gumogacha 670 li (268 km) bor edi. Xan va Vey davrlaridagi masofa ko'rsatkichi bo'lgan “li” o'lchamlari o'rtasidagi uzunlikdagi farqni unutmaylik. Suy va Tan davrida, Yan Kuanning fikriga ko'ra, “li” ning uzunligi kechki Vey bilan teng bo'lib qolgan. Eslatmalarga ko'ra, Balujia qadimgi Gumoning g'arbiy qismida joylashgan. Shyuan Zangning Balujia poytaxtiga kirishi dargumon, chunki bu uning yo'lini uzaytirib yuborardi. Va sharqiy yerlaridan u, ehtimol, hozirgi Yakkaariq hududidan, shimoliy-g'arbiy sayohatini davom ettirdi, bu esa uni Issiqko'lga olib keldi.

“Xan shu” ga ko'ra, Vensudan shimolga, poytaxt Usungacha boradigan yo'l Sharqiy Turkistondan Tekes va Ili vodiylariga eng qisqa yo'l sifatida faqat Muzart dovoni orqali o'tishi mumkin bo'lgan yo'l ma'lum edi. Shyuan Zang yozishicha: “Shimoli-g'arbda, 300 li/157 km dan keyin biz Shiszi daryosidan o'tib, Lingshanga (Muz tog'i) yaqinlashdik. Bu Sunlinning shimoliy chegarasi”³. Avvalo, VII asr boshidagi xitoyliklarning g'oyalariga ko'ra, Sunling aslida shimolda Xon-Tengri tog' tutashgan joyidan boshlanganini ta'kidlashimiz mumkin. Xaritaga ko'ra, Yakaariqdan Muzart dovonigacha bo'lgan masofa taxminan 120 km bo'lib, balandligi 3564 m bo'lgan dovon orqali VII asr boshidagi 157 km yo'l masofasiga to'liq mos keladi.

Keyingi yo'lni tasvirlab, Shyuan Zang shunday deydi: “400 li tog'larni bosib o'tib, biz aylanasi 1000 li, sharqdan g'arbga cho'zilgan va janubdan shimolga

² Ouyan Syu (1007-1072) va Sun Si (998-1061) 960-1279 yillar hukmronlik qilgan Sun sulolasi tarixchilari 1043-1060 yillari shu sulolaning yangi tarixi “Sin Tan shu” (“Tan sulolasining yangi tarixi”) ni yozganlar.

³ “Sin Tan shu”da shunday deyilgan: Balujiadan 300 li g'arbda (221/1, 6233-bet). Shubhasiz, bunday ko'rsatkich bitta iyeroglifning yo'qolishi natijasidir, chunki agar Balujia poytaxti Aksu shahrida bo'lsa, unda uning g'arbida hech qanday dovon yo'q, 157 li yo'l masofasi, taxminan 120 km.

toraygan Dasingchiga (Chjexay yoki Syanxay deb ham ataladi) yetib keldik. To‘rt tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan” [13, ch. 1, p. 21].⁴

Bu Issiqko‘l ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Biroq, Shyuan Zangning unga qanday kelganligi haqida turli xil fikrlar mavjud. Ba‘zilar u Muzartning Bedel dovoni (4284 m) orqali o‘tganiga ishonishadi. XXR ning zamonaviy olimi Chjou Lyankuan o‘zining “Buyuk Tan davrining G‘arbiy hududi to‘g‘risidagi eslatmalarga oid tarixiy-geografik tadqiqotlar tavsifi” fundamental asarida ushbu fikrlarning barchasini keltirib, ularning hech biriga qo‘shilmagan va Shyuan Zang boshqa dovon - Qoraqir orqali va undan keyin Issiqko‘lning sharqiy qirg‘og‘idagi hozirgi Tup qishlog‘iga o‘tganligini isbotlashga harakat qildi.

Birinchi, Issiqko‘lga bunday marshrut noma‘lum.

Ikkinchi, nima uchun Shyuan Zang yo‘lni bitta pastki dovondan emas, balki, ikkita, hattoki juda baland bo‘lgan yo‘llarni tanlagani, ikkinchi yo‘lni esa belgilamagan.

Uchinchi, nega u Hindistonga bo‘lgan olis safarni oson bo‘lmasligini oldindan bilib, asrlar davomida bosib o‘tilgan yo‘lni emas, balki uzoq va mashaqqatli yo‘lni tanlagan? Negaki, Muzartdan (3564 m) balandroq bo‘lgan (4284 m) Bedel dovonigacha hozirgi Oqsuvdan 200 km kartografik masofa bo‘lib, bu Lingshangacha bo‘lgan qadimgi yo‘l masofasidan ham ko‘proqdir. Bularning barchasi, hamda masofa haqidagi ma‘lumotlar Martin, Bil va Bretshnaydarning Shyuan Zang Muzart dovonini kesib o‘tganini tasdiqlaydi.

Chjou Lyankuanning o‘zi Xan davridagi li uzunligini to‘g‘ri aniqlagan, ammo Vey-Tan davridagi uzunligini aniqlamagan. Shunday qilib, uning masofalar haqidagi taxminiy hisob-kitoblari noaniq bo‘lib chiqdi. U Yan Kuanning ishini esa tilga ham olmagan.

Shunday qilib, Lingshan (Muzart) dan Issiqko‘lga bordi. Shu o‘rinda tan olishimiz kerakki, bu yo‘lning ushbu qismi haqiqiy masofadan bir oz kamroq. 1888-yilda Z.Matusovskiy va Nikitin tomonidan tuzilgan hamda Z.Matusovskiyning “Xitoy imperiyasining geografik ko‘rinishi” asariga ilova qilingan Xitoy imperiyasining xaritasi o‘sha davrda Issiqko‘lga boradigan bu yo‘l to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xullas, bu masofani Shyuan Zang to‘g‘ri aniqlagan.

“Shaffof ko‘lining shimoli-g‘arbida 500 li masofani bosib o‘tib, Suye shahriga yetib keldik. Shahar aylanasi 6-7 li. Bu yerda barcha qo‘shni hududlarning savdogarlari va chet elliklar aralashib yashaydilar”, deb yozadi Shyuan Zang. Uning shimoliy qirg‘oq yoki janubiy qirg‘oq bo‘ylab yurganligida turli qarashlar mavjud. Shunga qaramay, janubiy qirg‘oq bo‘ylab sharqiy qirg‘oqda Baliqchi qishlog‘igacha (g‘arbiy qirg‘oqda) bo‘lgan yo‘l shimoliy yo‘lga qaraganda sezilarli darajada uzunroq ekanligi aniq. Bundan tashqari, janubiy yo‘l shimoliyga qaraganda mashaqqatliroq, ko‘lning shimolidagi iqlim esa ancha qulayroq edi. Zamonaviy qo‘llanmada

⁴ “Sin Tang shu”da Lingshandan Datsinchigacha bo‘lgan 400 li yo‘l o‘tkazib yuborilgan va ko‘rsatilmagan. “Shiji”dan keyin Suyega boradigan 500 li masofalik yo‘l ko‘rsatiladi.

ta'kidlanganidek, “shimoliy qirg‘oqning markaziy zonasi butun Issiqko‘l havzasidagi eng qulay zonalaridan biridir”. Xo‘sh, nega oldinda uzoq yo‘l turgan sayohatchilar Issiqko‘lning janubiy qirg‘og‘i bo‘ylab eng noqulay va uzoqroq yo‘lni tanlashgan edi?

Suye shahrida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar yashaganligi sababli, u katta karvon yo‘lida joylashgani aniqlangan. Ammo Shyuan Zang ko‘rsatgan masofaga asosan uni Issiqko‘ldan uzoqroq joyda izlash noto‘g‘ri bo‘ladi, bu ko‘rsatmalar faqat ko‘l yaqinidagi Chu daryosigacha bo‘lgan masofaga to‘g‘ri keladi.

Keyinchalik “Eslatmalar” da biz shuni o‘qishimiz mumkin: “Suye shahridan g‘arbda 400 li dan keyin ular Mingbuloqqa yetib kelishdi. Mingbuloqning janubiy tomonida qorli tog‘lar, qolgan uch tomonida tekislik bor. Daryolar yerni sug‘oradi...”

Qirg‘iz tizmasining shimoliy etaklarida Baytiq tizmalararo pastligi joylashgan, zamonaviy yo‘riqnomada aytilishicha, “siz o‘zingizni o‘zga tabiat zonasida ekanday his qilasz”. Bu yerda yoz va qish ancha mo‘tadil, havo toza va shaffofdir” .⁵

Mingbuloqdan 73-78 km g‘arbda, Shyuan Zang yozganidek, Dalosi shahri joylashgan bo‘lib, unda “barcha davlatlarning savdogarlari va chet elliklar birgalikda yashagan”. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, Dalosi katta karvon yo‘lida joylashgan. Dalosidan 200 li/105 km janubi-g‘arbda, Shyuan Zang ma‘lumotlariga ko‘ra, Bayshuychen joylashgan. Yo‘lning sharqida Qirg‘iz tizmasidan oqib o‘tuvchi Chu daryosining irmog‘i va Oqsuv daryosi (turkcha “oq suv”) bo‘lgan, ular bo‘ylab ikkita aholi punkti joylashgan. Demak, Bayshuychen shahri shu daryoga yaqin hududda (Talas shahrining janubi-g‘arbidagi boshqa daryo yaqinida emas) joylashgan deb ishonishga asos bor.⁶ Shyuan Zang tomonidan ko‘rsatilgan Dalosigacha (Talas shahridan ko‘plab tarixchilar tomonidan aniqlangan fonetik uyg‘unlikka ko‘ra) bo‘lgan masofa Talas yaqinidagi g‘arbiy tomonda joylashgan Oq daryoni (Aksu, Baysyuy) izlashga imkon bermaydi.

Bayshuychen shahridan 200 li/105 km janubi-g‘arbda, Shyuan Zang ma‘lumotlariga ko‘ra, Gongyu shahri, janubda esa 50 li/26 km masofada Nuchijian joylashgan.⁷ Sulola tarixida bu joylar haqida boshqa ma‘lumotlar keltirilmagan. Ammo Nuchijianidan g‘arbda 220 li / 115 km masofada ko‘rsatilgan Chjeshi davlati “Bey shi” va “Sin Tan shu” sulolalari tarixida Shi (tosh) nomi bilan ma‘lum bo‘lib, o‘sha davr voqealari tavsifida qayd etilgan bo‘lib alohida e‘tiborga loyiq.

Uning Toshkentdagi joylashuvi umumiy tarzda qabul qilingan. Xitoycha Shigou (Tosh davlat), Toshkent, ya‘ni Tosh Shahar nomining qadimgi arab va qadimiy turkiy tillar bilan ham, Toshkent shahrining hozirgi nomi – Shosh, Choch bilan ham mos kelishiga asoslanadi.

Endi ma‘lumotlar manbalari va ularning tahliliga murojaat qilaylik.

⁵ Л.А.Боровкова. Запад Центральной Азии во II в до н.э. – VII в.н.э. Москва, 1989. С.130

⁶ Л.А.Боровкова. Запад Центральной Азии во II в до н.э. – VII в.н.э. Москва, 1989. С.141

⁷ Muallif bu asarida yevropalik tadqiqotchilarga ishora qilib, ularning nomini aytmay, Baishuychenni aynan shu tarzda mahalliyashtiradi.

Shyuan Zang Chjeshi haqida shunday xabar beradi: “Chjeshining aylanadagi holati 1000 li dan ortiq. G‘arbda Yexe daryosiga tutashgan. Sharqdan g‘arbga cho‘zilgan, janubdan shimolga toraygan... Turklarga qarashli. Bu yerdan janubiy-sharqqa – Buxang davlatiga 1000 li dan ortiq”.

“Sin Tan shu” da Shi tavsiflaridan birida Shidan Buxangacha janubga 1000 dan ortiq li borligi, to‘rt tomondan tog‘lar bilan o‘ralganligi, Sudulisening g‘arbdan 1000 li uzoqlikda joylashganligi aytiladi. Uning yerlari sharqda Sunlinning “shimoliy chegarasi” dan oqib o‘tadigan va shimoli-g‘arbga “suvsiz va o‘tsiz katta cho‘lga” oqib o‘tadigan Suye daryosiga tutashgan va undan 500 li dan ortiq masofada Kan mamlakati joylashgan.

“Sin Tan shu”da Shidan Buxangacha min li ko‘rsatilganligi, unda “Sin Tan shu”da tasvirlanmagan, lekin Shyuan Zang tomonidan tasvirlangan Sudulisen davlati tilga olinganligi, Shi, Shyuan Zang ko‘rsatmalaridagi Chjeshi kabi daryoga tutashganligi - bularning barchasi Ouyan Syu Shyuan Zangga ko‘ra, Shi davlatining tavsifini tuzgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Va shuning uchun Shyuan Zang tavsifida daryoning nomi Yexe emas, balki Suehe bo‘lishi kerak edi.

Shyuan Zangning yuqorida keltirilgan ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Suye daryosi Qirg‘iz tizmasining janubidan boshlanuvchi hozirgi Chu daryosidir. “Sin Tan shu” da u Sunlinning “shimoliy boshlanishi” dan oqib chiqadi deyiladi. Yuqorida Shyuan Zangning Sunlinning “shimoliy boshlanishi” haqidagi guvohligi bor edi, biz uni Xon Tengri bilan tenglashtirishimiz mumkin. Ammo Xon Tengrining sharqida Chu daryosi emas, balki Norin daryosi boshlanadi, uning kanali Frunzegacha Baliqchi qishlog‘idan boshlangan karvon yo‘lining janubidan o‘tadi. Sulola tarixiga oid ma‘lumotlar Xitoy saroyida G‘arb davlatlari to‘g‘risida ma‘lumot bergan amaldorlar va bu ma‘lumotlarni yozib olgan shaxslar daryo o‘zanlaridan o‘tishga qiziqmagan degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi. Demak, “Sin Tang Shu”da berilgan tavsifda Norin daryosining manbalari Chu daryosining manbalari bo‘lib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Л.А.Боровкова. Запад Центральной Азии во II в до н.э. – VII в.н.э. Москва, 1989.
2. Вайнберг Б.И. Некоторые вопросы истории Тохаристана в IV-V вв. - Буддийский культовый центр Кара-Тепе в старом Термезе. М.б 1972.
3. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Л., 1950.
4. Синицын В.М. Центральная Азия. М., 1959.